



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 2-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Latipov Xursandbek

XIVA XONLIGIDA “XONBOZI DAVRI”5-11

Qodirov Najmiddin, O'tanov Normo'min

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY
ASOSLARINI SHAKLLANISHI..... 12-22

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Rustamova Sayyora, Abdulhakimova Mohlaroy

TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA TASHKILIIY MADANIYATNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 23-29

09.00.00- FALSAFA FANLARI

Yazdonov Ulugbek

ZAMONAVIIY DUNYO DRAYVERI SIFATIDA KIRIB KELGAN SUN'IY INTELLEKT VA UNING
RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI..... 30-34

Zakirov Shakirdjan, Djuraev Avazbek

THE ROLE OF INTERETHNIC HARMONY IN STRENGTHENING SOCIAL STABILITY IN
UZBEKISTAN 35-42

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Akhrorova Manzura

THE INTERPRETATION OF INNER SUFFERING AND SELF-SACRIFICE IN THE COMPARISON
OF HAMLET AND FARHOD..... 43-46

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Usmonqulov Jo'rabek

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OLIY TA'LIMDA IJODKORLIK VA
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH..... 47-52

Jumaboev Nabi

POSSIBILITIES OF USING THE AESTHETIC HERITAGE OF ORIENTAL THINKERS IN YOUTH
EDUCATION 53-59

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Elmurodov Faxriddin

ELEKTORAL MADANIYAT VA UNING JAMIYAT SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI..... 60-65

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES*Article / Original Paper***XIVA XONLIGIDA “XONBOZI DAVRI”****Latipov Xursandbek Maqsud o'g'li**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
tarix yo'nalishi talabasiEmail: xursandbeklatipov121@gmail.com

Tel: +998(99) 122-47-51

ORCID: 0009-0004-1693-0795

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligida XVII asrning oxiridan XIX asr boshlarigacha davom etgan va xonlarni osongina almashtirish asosiy mazmuni bo'lgan “Xonbozi davrining tarixiy-siyosiy mohiyati, uning boshlanish sabablari va oqibatlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Arabshohiylar, Xiva xonligi, Abulg'oziy Bahodirxon, Anushaxon, “Xonbozi”, islohotlar, qo'ng'irotlar, yovmutlar, Nodirshoh, qabilalar.

“KHANBOZI PERIOD” IN THE KHIVA KHANATE**Latipov Xursandbek Maqsud ugli**Student at the department of history at Urgench State University
named after Abu Raikhan Beruni

Annotation. This article presents information about the historical and political essence of the "Khanbozi period", the causes of its beginning and consequences, which lasted from the end of the 17th to the beginning of the 19th century in the Khiva Khanate and was characterized by the easy replacement of khans.

Keywords: Arab Shahs, Khiva Khanate, Abulghazi Bakhodir Khan, Anusha Khan, "Khanbozi", reforms, kungrads, yamuts, Nader Shakh, tribes.

Kirish.

XVII asrning ikkinchi yarmi Arabshohiylar sulolasi tomonidan boshqarilgan Xiva xonligi taraqqiyotining oltin davri bo'ldi desak, adashmagan bo'lamiz. Xiva xonlari Abulg'oziy Bahodirxon hamda uning o'g'li Anushaxonlar hukmronligi davrida mamlakatda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish kuzatilgandi. Abulg'oziy Bahodirxon islohotlar doirasida, xonlikning ma'muriy boshqaruv tizimini, aholi o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash va qabilalar ustidan nazoratni to'laqonli amalga oshirish maqsadida o'zbek urug'lari 4 ta katta guruhga bo'lingan edi [2; B. 290]. Bu davrda davlatning boshqaruv apparatiga jiddiy o'zgarishlar kiritilgan bo'lib, o'zbek urug'i vakillaridan 360 kishi davlatning turli lavozimlariga tayinlanib, ularning 34 kishi xonning maslahatchilari va mulozimlarini tashkil etgan. Voqealar rivoji shuni ko'rsatdiki, Abulg'ozixon tomonidan o'tkazilgan ushbu ma'muriy-siyosiy tadbirlar tizimli ravishda bo'lmay, jamiyatda yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni keyingi davrlarda hal qila olmayotgan edi. Bu esa, o'z navbatida urug' boshliqlarining qudrati va davlat

boshqaruvidagi ta'sirining oshib ketishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan boshqaruv qabila birlashmalari qo'liga o'tib, o'z mavqeyini amalda yo'qotgan qonuniy hukmdorlar turli siyosiy kuchlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolgan edilar. Ushbu inqirozli siyosiy jarayon XVIII asrning boshlarida o'z ibtidosiga qadam qo'ydi va ayni asrning 70-yillarigacha xonlik hududida bu jarayon hukm surdi. Adabiyotlarda bu davrning dastlabki 30 yilga yaqini "tumanli" – mavhum davr, keyingi 40 yilga yaqini esa "xonbozi" – xon bo'lish o'yini yoki taxt o'yini sifatida tilga olinadi[1; B. 408]. Ushbu siyosiy tarqoqlik davrining boshlanish nuqtasi Anushaxonning o'limidan keyingi yillarga borib taqaladi. Bu davr Xiva xonligi tarixining eng qorong'u va inqirozli davrlaridan biri bo'lib, davlatdagi siyosiy holatning ayni darajaga yetishiga sabab bo'lgan tarixiy jarayonlar bu davrni shunday deb nomlashga asos bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Xiva xonligining ushbu davri haqida ayni davr mahalliy manbalari birlamchi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Bunday manbalar qatoriga Xiva tarixnavislik maktabining Abulg'oziy Bahodirxondan keyingi asosiy namoyondalari – Shermuhammad Munis hamda uning jiyani Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy hammuallifligida yozilgan – "Firdavs ul-iqbol" asarini misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Ushbu asarning mavzuga aloqador boblarida Xiva xonligidagi Arabshohiyar sulolasi hukmdorlarining hukmronlik davrlarini navbatma-navbat yoritib boradi. Shuningdek, davr tarixini yoritib beruvchi bir qancha tadqiqot ishlarida ham Xiva xonligining ushbu davri haqida bir qancha ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Yuri Breygel o'z maqolasida bu davrni "Xorazm so'nggi tarixining eng tumanli davri" [qarang, 1; B. 409] deb aytib o'tadi. Nigora Allayeva esa, o'z monografiyasida bu davrning ikki kichikroq davrga bo'linishini ("tumanli" va "xonbozi") ta'kidlab o'tib [qarang: 5; B. 98], ayni vaqtda davr tarixi haqida anchagina qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Mavzu tahlili kompleks tarixiy yondashuv asosida olib borildi va unda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Manbashunoslik tahlili – mahalliy tarixchilarning asarlari(jumladan Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy va h.k), shu bilan birga mavzuga aloqador bo'lgan bir qancha ilmiy ishlardan foydalanildi.

2. Tarixiy-solishtirma tahlil — Xiva xonligidagi siyosiy jarayonlar qo'shni Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixidagi o'xshash davrlar bilan qiyoslandi.

3. Strukturaviy tahlil — siyosiy kuchlar tuzilmasi, qabila zodagonlari roli va markaziy hokimiyat faoliyati tizimli ko'rib chiqildi.

4. Xronologik metod — "Xonbozi davri"dagi asosiy voqealar izchil ketma-ketlikda o'rganildi.

Ushbu metodlar davr mohiyatini chuqur anglash hamda ilmiy xulosalarning aniq va asosli chiqishini ta'minladi.

Muhokama.

"Xonbozi davri" Xiva xonligi tarixidagi eng qora sahifalardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin. Negaki, bu davrda davlatdagi markaziy boshqaruv o'zining eng zaif nuqtasiga tushgan va endilikda, xonlarni almashtirish deyarli o'yinchoq bo'lib qolgan davrga qadam qo'ygan edi. XVIII asrning boshidan to 70-yillarigacha bo'lgan oraliqda kechgan bu davrning boshlanish alomatlari Anushaxonning o'limidan keyingi yillarda yuzaga chiqa boshlaydi. Davr Anushaxonning o'g'li Xudoydodxonning uning vasiyati bilan 1689-yilda xon bo'lishi bilan boshlanadi (ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Xudoydodxonning amalda xon sifatida

taxtga o'tkazilishi bundan bir yilcha avvalroq bo'lib o'tadi. Anushaxon Buxoroni ikkinchi marta qo'lga kiritib, ortga qaytayotganida, manfur saroy a'yonlarining fitnasiga duchor bo'ladi. Mang'it Odinaqul boshliq ulamolar yo'lda zo'rlik bilan xonni qo'lga olib, uning ko'ziga mil tortib, ko'r qiladilar. Sal fursat oldinroq xonning buyrug'i bilan Xivaga jo'natilgan Umboy inoqning o'g'li Sayyid inoq bu voqeadan xabar topib, xonning katta o'g'li Xudoydodxonni ota o'rniga xon deb o'tkazadi... Mash'um fitnadan bir yil o'tgach, Anushaxon vafot etadi va uning vasiyatiga muvofiq, Xiva taxtiga Xudoydodxon rasman 1689-yilda o'tiradi [qarang: 9; B. 114]]. Uning hukmronlik davri haqida Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asarida ham ma'lumotlar mavjud. Asarda Xudoydodxonning davri haqida shunday ma'lumotlar keltirib o'tiladi: "Xudoydodxon ota vasiyati bila masnadi iyolatg'a o'lturub, mulk intizomig'a mashg'ul bo'ldi. Aning zamonida Bekijon inoq o'lub, Xudoyquli inoq mansabig'a o'lturdu. Va Xudoydodxon ziyoda siyosatlig' va adolatlig' podshoh erdi[8; B. 93]. Xudoydodxon xonlikni 2 yil boshqardi va adolatli siyosat yuritishga harakat qildi. Lekin, uning bu siyosati ko'pgina saroy a'yonlariga yoqmadi. Saroy a'yonlari Xudoydodga qarshi uning ukasi Arangxonni qayraydilar. Natijada, 17 yashar Xudoydodxonni o'z inisi Arangxon shahid qildi. Arangxon o'z otasi Anushaxondan farq qilib, davlat ishlariga yetarli e'tibor bermas edi. Natijada, uning qisqa muddatli hukmronlik davrida mamlakatda ichki to's-to'polonlar avj oldi. Qisqa muddatdan so'ng, Arangxon halok bo'ladi(ayrim manbalarda uning otdan yiqilib tushib vafot etganligi, boshqalarida Orol o'zbeklariga qarshi bo'lgan jangda halok bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi[qarang: 9, B. 115]. Uning vafotidan keyin, Onasi To'xtaxonim(u darg'onotalik turkmanlardan edi) Arangxonni Pahlavon Mahmud maqbarasiga dafn qilib, Darg'onotalik Arangxonga juda o'xshash bo'lgan turkman yigiti bilan ming otliq turkmanlarni olib, Xivaga kirib keladi. Ikki oy ichida soxta Arangxon boshliq turkmanlar Xiva xonligini egallab olishib, xonlik aholisiga jabr-u sitam o'tkazishni boshlashadilar[qarang: 4; B. 90-91]. Odina Muhammad va Jiyanboyning navkarlari va yana bir qancha soxta o'zbeklar qo'shib, turkmanlarni tor-mor etadilar. Xiva xalqi soxta Arangxonni tutib o'ldiradi, onasi To'xtaxonni otga sudratib, ko'p turkmanlarni qatl ettiradilar[4; B. 91]. Shu tariqa, mamlakat tarixida siyosiy tarqoqlik davri boshlanadi. Oradan biroz vaqt o'tgach, Odina Muhammad otaliq va Jiyanbiy Miroy yordamida taxtga Hojixon naslidan bo'lgan Jo'jixonni o'tkazishadi. Yangi xonning uch yillik hukmronligi davrida el osoyoishta bo'lsa-da, keyingi 15 yil mobaynida Xiva taxtida 10 ga yaqin hukmdorlar almashdi. Valixon(1698-1699), Shoh Niyozxon(1699-1702), Shohbaxtixon(1702-1703), Sayyid Alixon(1703-1705), Musoxon(1705-1706), Yodgorxon(1706-1713) va hokazo. Siyosiy barqarorlikning yo'qligi va xalq ahvolining og'irlashib borayotganligi noroziliklarni haddan tashqari kuchaytirib yubordi[3; B. 35]. Hattoki, bu davr ichida Xiva xonlari Rossiyaga qo'shilish istagini izhor qilib, ulardan harbiy ekspeditsiya qabul qilishga va ularni xufiyona yo'q qilishga ham muvaffaq bo'ladilar. Ayni davr haqida Yuri Breygel o'zining maqolasida shunday deb o'tadi: "Ayni vaqtda iqtisodiy va siyosiy zaiflashuv Xiva xonligida ham sezildi. Arabshohiylar sulolasining boshqaruvi 1106/1694 va 1190/1727-yillarda jar yoqasiga keldi. Xivadagi markaziy boshqaruvning zaiflashuv jarayoni Buxorodagi nisbatan sekin davom etgan ayni jarayonga o'xshash bo'lishiga qaramasdan, Xiva xonligining shimolidagi asosan ko'chmanchilardan tashkil topgan Orol qismi xonlikdan ajralib chiqdi va bir asr davomida nafaqat mustaqil bo'ldi, balki Xiva xonligi bilan muntazam tarzda urush harakatlarini olib bordi"[qarang: 10; B. 1]. Shu sababli XVIII asrda Xiva xonligi o'z boshidan eng og'ir va qonli fojealarga to'la bo'lgan voqealarni

kechirdi[9; B. 116]. Xonlarning tez-tez almashinuvi va o'z kuchiga ega bo'lmasligi viloyat hokimlari va qabila boshliqlarining markaziy hokimiyatdan mustaqilligi kuchayishiga olib keladi. Xiva xonligida bir vaqtning o'zida bir necha kishini xon deb e'lon qilish boshlanadi. Mamlakat butunlay tartibsizlik ichida qoladi. Bir tomondan o'zbek, boshqa tomondan turkman qabilalari ta'siri kuchayadi. Qo'shimchasiga qozoqlar ham xonlik ishlariga aralasha boshlaydi. Shunday bo'lsa-da, Xiva xoni Sherg'ozixon 1714-1717 yillarda xonlikka kirib kelgan Aleksandr Bekovich-Cherkassiy boshliq Rossiya harbiy ekspeditsiyasini tor-mor qilishga erishadi. Bu voqea Rossiyaning Markaziy Osiyoga bosqinchilik yurishlarini kechiktirishiga sabab bo'ladi. 1728- yilda Xivadagi qullar qo'zg'oloni oqibatida Sherg'ozixon va uning mulozimlari qatl qilinadi. Taxtga qozoq xoni qarindoshi bo'lgan yosh xon o'tqaziladi. Biroq juma kuni ertalab taxtga o'tqazilgan xon, juma namoziga borayotib, yo'lda otdan yiqilib halok bo'ladi. Shu sabab ham unga Sari Ayg'irxon deb nom berishadi. Shundan so'ng Xiva xonligi taxtiga boshqa bir qozoq sultoni Elbarsxon o'tiradi[11].

Xiva xonligidagi "xonbozi" jarayoni Nodirshohning Xorazmga yurishi va xonlik taxtiga o'z noiblari tayinlab qo'yishi bilan yanada avj olib ketdi. Bunga esa, Elbarsxon davrida ham to'xtamagan, o'zbek va turkmanlar bilan bo'lgan kurash sabab bo'ladi. Nodirshoh Buxoroni bo'ysundirganidan so'ng, o'z e'tiborini Xorazmga qaratdi. U Xiva xonligi qo'shinini ikkita jangda mag'lub qilib, Xonqa shahrida xonni qamal qilishga muvaffaq bo'ldi. Bir necha Kundan so'ng, Elbarsxon taslim qilindi va 12 ta xos amiri bilan birgalikda Nodirshoh tomonidan o'limga hukm qilindi, bir necha kun o'tib, Xiva shahri ham taslim bo'ldi. Nodirshoh Xivadagi barcha qullarni(fors, qalmaq va slavyanlar) ozod qilib, ularni Obivarddan 4 farsax masofada joylashgan, yangi qurilgan Xivaqobod shahriga joylashtirdi. Xiva xonligi esa Nodirshoh armiyasini 4000 otliq askar va 1000 xarvor don bilan ta'minlaydigan bo'ldi. Nodirshohning o'zi esa Tohirxonni Xiva xoni sifatida tayinlab, Xorazmni tark etadi[10; B. 2]. Mang'it bekalaridan Ortiqbek va Xurodbeklar esa noib sifatida tayinlanadi. Ammo, bunga Orolbo'yi o'zbeklari itoat qilishdan bosh tortadilar va Abulxayrxonning o'g'li Nuralixonni 1741-yilda xon qilib ko'taradilar. Ayni shu yili Nodirshohning o'g'li Nasrulloxon yana Xivaga yurish qiladi va Nuralixon tarafdorlaridan Xivani tortib olishga muvaffaq bo'ladi. Taxtga esa Elbarsxonning o'g'li Abulg'ozixon II(1741-1745) o'tkaziladi. Ammo, uning hukmronligi ham uzoqqa cho'zilmadi. 1746-yilda Xiva mang'it inoqlari tomonidan fitna uyushtirilib, Abulg'ozixon II o'ldiriladi[6; B. 220]. Abulg'ozixon II ning mang'it inoqlari tomonidan o'ldirishi Xivada ham xuddi Buxoro xonligidagi singari mang'it urug'i vakillarining ta'siri oshib borayotganligini anglatar edi. Ayni vaziyat haqida Yuri Breygel o'zining maqolasida shunday deb eslab o'tadi: "Ikkala xonlikda ham amalda mang'it qabila boshliqlari Nodirshoh qo'llab-quvvatlashi ostida hokimiyatni yuritdi, ammo, Nodirshohning o'limidan keyin, mang'itlar faqatgina Buxoroda asosiy kuch sifatida qoldi"[10, B. 2]. Breygel keltirib o'tgan ushbu ma'lumotlar Nodirshoh o'limidan keyin kelgan Xiva xonlarining siyosatida mang'it urug'i vakillari nufuzining tushganligini tasdiqlaydi. Amalda shunday bo'ldi ham. Abulg'ozixon II o'ldirilganidan so'ng, Nodirshohning roziligi bilan 1747-yilda qozoq sultoni Abulxayrning ukasi G'oyibxon taxtga o'tkaziladi. G'oyibxon taxtga o'tirganidan keyin, hokimiyatni inoqlar ta'siridan xalos qilish maqsadida mang'it inoqlaridan Xurdodbekni qatl qildiradi, davlatdagi yirik mansablarni esa qozoq beklariga bo'lib beradi[6; B. 220]. Bu siyosat xonlikni mang'it inoqlarining ta'siridan xalos qilishga yordam berdi, ammo uning aholiga nisbatan jabr-zulmni kuchaytirib, 1756-yili Xiva xonligidagi Beshqal'a shaharlari(Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat va

Shohobod)aholisidan qo'shimcha 40 ming tanga soliqlarni yig'ib olishi Xivadagi xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. 1163/1756-yili otasi uni ko'rishga kelgan edi, shu vaqti G'oyibxon ko'p qozoqlarga qo'shib, Dashti Qipchoqqa qochib qutuldi[7; B. 130]. Hokimiyatni esa qisqa muddatga uning ukasi Abdullaxon egalladi. Abdullaxon Xivada to'rt oy xon bo'lganidan so'ng, uni ham taxtdan ag'daradilar va qozoqlar orasiga yuboradilar[7; B. 130]. Undan keyin esa mos ravishda Temirg'ozixon, Tavkaxon va shu kabi bir qancha soxta xonlar taxtga o'tirdilar. Bu xonlarning hokimiyat tepasiga kelishi xonlikda qo'ng'irotlarning va yovmutlarning asosiy kuchlarga aylanish davriga to'g'ri keldi, ayni davrda mang'itlar ham qo'ng'irotlar bilan kurashayotgan va turkmanlar mavjud vaziyatdan foydalanib, Xivada hokimiyatni egallash uchun harbiy harakatlar olib borgan edi. Manbada ko'rsatilishicha, bir yilda 53 ta yovmut sipohi bilan urushib, bu urushda har ikki tarafdin ko'p kishi halok bo'lgan. Muhammad inoq qanchalik urinmasin, shu davrda yovmutlarning Xivada siyosiy hokimiyatni qo'lga olishini to'xtata olmadi, yovmutlar Hazorasp, Xonqa va Oroidan boshqa Xorazmga tegishli bo'lgan barcha yerlarni bosib oldilar. Chorasiz qolgan Muhammad Amin inoq Buxoro amiri Amir Doniyolbiy oldiga yordam so'rab boradi. O'z navbatida, Xivada xon bo'lib turgan qozoq xoni Nurali, kichik qozoq juzining sultoni Erali va uning o'g'li Esim bilan ham hamkorlik qiladi Ammo, shunga qaramasdan, yovmutlar 1770-yil bahorida vaqtinchalik hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'lishadi va G'oyibxonning o'g'li Jahongir sultonni o'zlariga xon qilib tayinlashadi. Xiva amaldorlari orasida katta tayanchga ega bo'lgan Muhammad Amin esa otaliq lavozimiga tayinlanadi[qarang: 5, B. 138]. Lekin, Muhammad Amin yovmutlarni shu yilning o'zida mag'lubiyatga uchratishga va quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Shunga qaramasdan, u qozoq chingiziylaridan qo'g'irchoq xonlarni taxtga o'tkazishda davom etdi. U inoq sifatidagi butun hukmronlik yillari davomida boshqa qabilalardan bir nechta raqiblar bilan kurashishiga to'g'ri keldi. Uning o'g'li, Avaz Muhammad inoq(1204-1218/1790-1804) davrida inoqning Xivadagi pozitsiyasi mustahkamlandi. Uning o'g'li Eltuzarxon esa qo'g'irchoq chingiziy xonlarni xonlikdan tushirib, o'zini tantanali ravishda Xiva xoni deb e'lon qildi va rasmiy ravishda Qo'ng'irotlar sulolasiga asos soldi[9; B. 3]. Umumiy hisobda, Elbarsxondan to Eltuzarxongacha bo'lgan oraliqda (1740-1804) 26 ta soxta xon taxtga o'tirdi va ularning hukmronlik davri "Xonbozi" o'laroq tarixda qoldi. Ayrim ma'lumotlar esa, 1695-1804-yillarda Xiva xonligida 37 marta xon almashganligini tasdiqlaydi[12]. Xonlikning bu inqirozli davri ayni davr mobaynida davlatda xonlarning siyosiy mavqeyining sezilarli darajada pasayishiga, taxt uchun kurashlarning kuchayishiga, bu o'z navbatida xonlikda istiqomat qiladigan mahalliy aholining tinchligiga putur yetkazdi. Munisning asarlarida keltirilgan ayni davrdagi ocharchilik, odamlarning o'z uylarini tashlab, Orolbo'yi va Buxoro atroflariga ko'chib keta boshlaganligi, buning natijasida, Xivaning o'zida bor-yo'g'i 40 tagina oila qolganligi[qarang: 1; B. 412] haqidagi ma'lumotlari ham bu inqirozlarga boy davrning aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qilgan ta'sirini yaqqol ko'rsatib beradi.

Natijalar.

XVII asrdagi Arabshohiyalar sulolasi davridagi Xiva xonligining oltin davri Abulg'oziy Bahodirxonning davlat boshqaruvi sohasida olib borgan islohotlari natijasida bo'ldi. Lekin, aynan shu islohotlarning izchil tarzda olib borilmaganligi davlatda boshqaruv tizimi, shuningdek xon obro'sining zaiflashuviga, urug' boshliqlari nufuzining ortishiga yo'l ochdi. Natijada, yuqorida ta'kidlab o'tilgan "Xonbozi" davri tarix sahnasiga o'z nomini muhrladi va bu

jarayon Xiva xonligining eng qorong'u davri sifatida tarixda qoldi. Shuningdek, Xiva xonligining eng qora sahifalaridan biri bo'lgan bu davr quyidagi natijalarga olib keldi:

- mamlakatdagi markaziy boshqaruvning zaiflashuvi natijasida boshlangan bu davr Xiva xonligini siyosiy jihatdan anchagina zaiflashtirdi;
- ushbu davr natijasida Buxoro va Qo'qon xonligidagi kabi Xiva xonligida ham o'zbek qabilalarining ta'siri sezilarli darajada oshdi va yakunda rasman ularning hukmronligi o'rnatildi;
- mamlakatning bu davrda siyosiy jihatdan zaiflashuvi davlatning tashqi dushmanlar ta'siriga tushishiga zamin yaratdi;
- mamlakatdagi siyosiy notinchlik natijasida markaziy shaharlada aholi sezilarli ravishda kamayib ketdi. Masalan, Xiva shahrining aholisi 40 ta xonadondan iborat bo'lib qoldi;
- xonlik tarixidagi bu davr markaziy boshqaruvga asoslangan davlatlarda markaziy hokimiyatning zaiflashishi mamlakatda keng miqyosda ichki notinchliklarni keltirib chiqarishini ko'rsatib berdi.

Xulosa.

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Xiva xonligida kuzatilgan Xonbozi davri (Anushaxon hukmronligidan keyingi yillardan to 1804-yilgacha) xonlik tarixining murakkab va o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Bu davr nafaqat siyosiy beqarorlik, markaziy hokimiyat zaiflashuvi va amaldagi hukmdorlarning (xonlarning) qisqa muddatlarda almashinuvi bilan xarakterlanadi, balki xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida chuqur turg'unlik yuzaga kelgan vaqt hamdir.

Xonbozi davri Xiva xonligining oldingi yirik harbiy-siyosiy zarbalar (ayniqsa, Nodirshoh bosqini) oqibatlaridan to'liq tiklanmagan bir sharoitda, xonlikning qabila (ayniqsa, qo'ng'irotlar) va urug'lar o'rtasidagi ta'sir doiralari uchun kurash maydoniga aylanganini ko'rsatadi. Haqiqiy hokimiyat ko'pincha amalda hokimiyatni boshqarib turgan inoqlar qo'lida bo'ldi. Bu holat, bir tomondan, markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash kechganini anglatadi, boshqa tomondan esa, ushbu davrni yakunlagan qo'ng'irot sulolasining poydevori aynan shu beqarorlik sharoitida qo'yilganini ta'kidlash lozim.

Shunday qilib, xonbozi davri Xiva xonligining tarixidagi og'ir va sinovli davr bo'ldi. U markazlashgan kuchli davlatga bo'lgan ehtiyojni keskin ko'rsatib berdi va oxir-oqibat, XIX asrda Xiva xonligining nisbatan barqaror bo'lgan yangi bosqichiga zamin yaratdi.

Ushbu jarayonlar Xiva xonligining siyosiy tuzumini zaiflashtirib, keyingi islohotlarga zarurat tug'dirgan bo'lib, mazkur davrni chuqur ilmiy tahlil qilish O'rta Osiyo davlatlari tarixidagi siyosiy jarayonlarni yanada kengroq va mukammal tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Zamonov A. O'zbekiston tarixi (IV qism). – Toshkent: Bayoz, 2022. – 560 b.
2. B.J. Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi (II kitob). – Toshkent: "Donishmand ziyosi", 2020. – 290 b.
3. M.Mahmudov, U.Sheripov. Xiva xonligi tarixi. – Urganch: Urganch davlat universiteti noshirlik bo'limi, 2013. - 136 b.
4. Matyaqubov Shonazar, Jumaniyazova Firuza. Xiva xonligi tarixnavisligi. – Buxoro: "Durdona", 2024. - 168 b.
5. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. – Тошкент: "Akademnashr", 2019. - 496 б.

6. Б.Ж.Эшов, А.А.Одилов. Ўзбекистон тарихи(II китоб). – Тошкент: “NIF MFSH”, 2024. – 316 б.
7. Комилжон Худойберганов. Хива хонлари тарихидан. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2008. – 194 б.
8. Мунис. Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. - 520 б.
9. Озод Машариов. Хоразмнома(III китоб). – Хоразм: “Хоразм” нашриёти, 2009. 240 б.

Internet saytlari:

10. <https://www.iranicaonline.org/articles/central-asia-vii/>
11. <https://kun.uz/85371955>
12. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/673>

HUMANSCIENCES.UZ

No 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com